

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti



SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI



G'ADA AS-SAMMAN VA ZULFIYA QUROLBOY QIZI HIKOYALARIDA PORTRET VA NUTQIY XARAKTERISTIKA

*Dilafroz Abdullayeva**PhD, O'qituvchi**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Badiiy psixologizm, badiiy obraz, ruhiyat, psixologik tahlil, psixologik realizm, magik realizm, nutqiy xarakteristika, psixologik portret, dinamik portret, statik portret.

Annotatsiya: Zamonaviy Suriya-Livan yozuvchisi G'ada as-Samman va o'zbek yozuvchisi Zulfiya Qurolboy qizi ijodida o'zaro mushtarakliklar va tutash nuqtalari ko'p uchraydi. Shulardan biri – ayollar mavzusi bo'lib, adibalar ijodida alohida ahamiyatga ega. Ayol ruhiyati musavviri bo'lgan mazkur ikki adiba o'z asarlarida Sharq ayollarining qismati, achchiq taqdiri, ayolning jamiyat va oiladagi mavqei, oilaviy qadriyatlar va unda ayolning vazifalari hamda mazkur jarayonlardagi murakkabliklar haqida yozadi.

Mazkur maqolada G'ada as-Samman hamda Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalarida psixologizm va psixologik tahlil masalasi hamda ikki adiba ijodidagi o'zaro mushtarakliklar tadqiq etilgan. Unda adibalar uslubidagi o'xshashliklar hamda psixologik tahlilning nutqiy xarakteristika hamda psixologik kabi vositalaridan foydalanish va qahramon ichki olamini ochib berish mahorati ochib berilgan. Yozuvchi G'ada as-Samman va Zulfiya Qurolboy qizi o'z ijodida nutqiy xarakteristika, portret kabi psixologik tahlil vositalaridan mohirona foydalanib, psixologik va magik realizm unsurlari bilan boyitilgan nasriy asarlar yaratib kelmoqdalar. Xususan, ular ijodida psixologik tasvir vositalari, ichki nutq va ichki monolog konseptining voqelanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Turli mamlakatlarda yashab ijod qilgan, o'zaro aloqalari va ta'siri mavjud bo'lmagan ikki adiba ijodidagi o'xshash g'oyalar, muallif maqsadining uyg'unligi, jamiyatdagi voqeliklarga munosabatidagi mushtarakliklar,

avtor uslubidagi uyg'unlik G'ada as-Samman va Zulfiya Quroloy qizining o'z zamonasining ijtimoiy muammolarini shaxsiy muammo darajasida tasvirlay olgan, zamonaviy adabiy jarayonlarda ma'lum bir siljish, yuksalishga ta'sir ko'rsatgan ijodkorlar safiga kirishini dalillaydi.

PORTRAIT AND SPEECH CHARACTERISTICS IN THE STORIES OF GADA AS-SAMMAN AND ZULFIYA KUROLBOY QIZI

Dilafroz Abdullaeva

PhD, Teacher

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Artistic psychology, artistic image, psyche, psychological analysis, psychological realism, magical realism, speech characteristics, psychological portrait, dynamic portrait, static portrait.

Abstract: The works of the modern Syrian-Lebanese writer Gada al-Samman and the Uzbek writer Zulfiya Kuroloy kizi have much in common and points of contact. One of them is the theme of a woman, which is of particular importance in the work of writers. These two writers, who are artists of the female psyche, write in their works about the fate of Eastern women, the bitter fate, the position of a woman in society and the family, family values and the duties of a woman in her. and the complexity of these processes.

This article discusses the issue of psychologism and psychological analysis in the stories of Gada al-Samman and Zulfiya Kuroloy kizi, as well as common features in the works of two writers. The similarity of the writers' style and the ability to use such tools as rhetorical characterization and psychological analysis are revealed to reveal the inner world of the hero. Writers Gada al-Samman and Zulfiya Kuroloy kizi skillfully use in their work such tools of psychological analysis as rhetorical characterization and portraiture, create prose works enriched with elements of psychological and magical realism. In particular, the implementation of the concept of psychological imagery, inner speech and inner monologue is of great importance in their work. Similar ideas in the work of two writers who lived and worked in different countries had no interaction and influence, the harmony of the author's goal, commonality in relation to the realities of society, the harmony of the author's style, Gada as-Samman and Zulfiya Kuroloyba kizi, who managed to characterize the social problems of her time at the level of personal problems, a certain shift in processes proves to the

modern writer that he will enter the ranks of the creators who influenced the rise.

ПОРТРЕТ И РЕЧЕВАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА В РАССКАЗАХ ГАДЫ АС-САММАН И ЗУЛЬФИИ КУРОЛБОЙ КИЗИ

Дилафруз Абдуллаева

PhD, Учитель

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Художественная психология, художественный образ, психика, психологический анализ, психологический реализм, магический реализм, речевая характеристика, психологический портрет, динамический портрет, статический портрет.

Аннотация: Появление комплексной системы подготовки нового поколения глобально конкурентоспособных педагогов требует дальнейшего совершенствования подготовки высококвалифицированных педагогов, досконально освоивших зарубежный спрос. В данном исследовании большое значение имеет лексикологический анализ терминов в области построения в английском языке и овладение методикой обучения. На основе сравнения образовательных систем Японии и Худжанда в области строительства были выявлены преимущества и недостатки системы обучения студентов нефилологического образования зарубежным строительным терминам и ряду педагогических подходов.

KIRISH

Zamonaviy adabiyotshunoslikni badiiy obraz va uning tadqiqisiz tasavvur qilish mushkul. Mumtoz adabiyot davridan to bugungi kun adabiyotimizga qadar badiiy asarlarda obraz va uning tasviriga alohida urg'u berib kelinmoqda. Badiiy obraz esa, o'z o'rnida uning o'ziga xos qirralarini ochib beruvchi va ayni damda nafaqat tashqi ko'rinishi, balki ichki olamini ham mukammal tasvirini beruvchi *adabiy portretsiz* bo'lmaydi. Adabiyotning turli bosqichlarida mazkur tushunchaga munosabat turlicha bo'lgan. Badiiy tasvir hamda kompozitsion vosita hisoblanmish portret, dastlab obrazga beriladigan ta'rifu tavsif bo'lib xizmat qilgan bo'lsa, psixologik asarlarda uning murakkab shakli – *psixologik portret* yuzaga kelib, psixologik tahlil vositasi sifatida qo'llanila boshlandi.

Sof realistik asarlarda portret personajning tashqi ko'rinishini tasvirlab, ijtimoiy mavqeini aniqlashtirib berishga xizmat qilgan bo'lsa, psixologik realizmda obrazning o'y-kechinmalari, botiniy hayot ini va shaxsning faqat ungagina xos bo'lgan ichki dunyosini chizib beradi. Adabiyotshunoslar portretni shartli ravishda statik va dinamik turlarga ajratadilar. Statik portret ko'p hollarda asarning boshida, umumiy suujet voqealari to'xtatib qo'yilgan holati, mufassal, to'liq beriladi. Dinamik portret esa asar suujetida, voqea-hodisalar tasviri hamda dialoglarda mufassal bo'lmagan holda berib boriladi. "Bunday portret detallari (yuz-ko'z ifodalari, tana holati va harakati, qiliqlari) ko'proq remarkalardan joy oladi va personajning ayni paytdagi ruhiy holatini ifodalashga xizmat qiladi".¹

¹ D.Quronov va b., "Adabiyotshunoslik lug'ati". Akademnashr, T.: 2010-y. 227-b.

Psixologik hikoyalarda qahramon nutqining ko'pgina qismini nutqiy xarakteristika egallaydi, yozuvchi shu yo'l bilan boshqa personajlarga portret chizadi. Muallif personaj nutqi orqali uning ichki dunyosini ochadi, atrof-muhit va boshqa obrazlarga ta'rif beradi.

“Adib uchun nutqiy xarakteristika obraz yaratish va ular ichki dunyosini ochishning asosiy vositalaridandir. Qahramonning ahvol ruhiyati, kayfiyati, kechinma va his-tuyg'ulari, bir so'z bilan aytganda butun ichki hayot, shu hayotning oqimlari bevosita ularning gaplarida namoyon bo'ladi. Chunki qahramon nutqi bevosita ruhiy holat mahsuli sifatida paydo bo'ladi”.²

G'ada as-Samman va Zulfiya Qurolboy qizi ijodiy uslubida hikoyachi-personaj yetakchilik qilgani bois, ikkala adiba ijodida adabiy portret hamda nutqiy xarakteristika vositalari uyg'un holda keladi.

Masalan, G'ada as-Sammanning “Mushuk ovozi” hikoyasida bosh qahramon Yafa tilidan taqdim etilgan nutqiy xarakteristikada ingliz qizi Dezdera obrazi potrterini ko'rishimiz mumkin.

لفتت نظري بمظهورها الغريب: قامة طويلة نسبياً، بنطلون يضيق على ساقين نحيلتين، وردف لا استدارة فيه كأرداف الرجال، و صدر أملس ووجه جميل التقاطيع غريبها، و شعر أشقر قصر يغطي عنقها من الخلف.³

U o'zining g'aroyib ko'rinishi bilan mening diqqatimni o'ziga jalb qildi. Nisbatan baland bo'yli, kiyib olgan shimi ozg'in sonlarini quchoqlab turardi, bo'ksasi xuddi erkaklarniki kabi tekis, silliq ko'kraklari va chiroyli yuz tuzilishi, ammo kalta mallarang sochlari orqa tomonidan ko'ylagining yoqasigacha zo'rg'a yetib turardi...

Bu Yafaning qo'shnisi Dezderaga bergan ta'rif bo'lib, u Dezderaning portretini chizadi. Ushbu nutqda muallif nafaqat qo'shni qizning portretini – tashqi ko'rinishini, balki Yafaning atrof-muhit va undan odamlarga munosabatini ham ko'rsatib bergan.

Hikoyada ichki monolog va nutqiy xarakteristika ajralmas birlik sifatida qo'llanilgan. Yozuvchi hikoya bosh qahramoni Yafa haqidagi ma'lumotlarni faqat uning nutqi orqali bayon etgan. Chunki asar muallif tilidan emas, Yafa tilidan so'zlanadi. Ya'ni Yafa obrazi haqidagi umumiy tasavvur va uning portretiga chizgilarni Yafaning xotira-monologlari va ichki monologlari, shuningdek dialoglar orqali bilib olishimiz mumkin.

Hikoyada portret san'ati alohida o'rin tutadi. Yuqorida biz Dezderaning Yafa tomonidan chizilgan portretini o'qidik, bu detallashtirilgan portret bo'lib, unda shaxsning bo'yi, sochi, yuz-ko'zi, shuningdek, ba'zi o'ziga xos tomonlari keltirib o'tiladi.

Bu san'atning psixologik portret turida esa personajning ichki dunyosi chiziladi va bunda turli badiiy san'at vositalaridan foydalaniladi. Masalan, rus adabiyotining eng yirik namoyondasi L.N.Tolstoy qahramonlar xarakteristikasini yaratishda eng sara detallardan foydalanadi. Bunga uning har bir personaji uchun oldindan tayyorlab olgan, quyidagi punktlardan iborat maxsus “anketa”dan foydalangan: “obrazning moddiy ahvoli, kirishimliliigi, she'riy tabiatliliigi, aqliy darajasi, ishqiy munosabatlari”⁴.

Adiba G'ada as-Samman ham hikoyada qahramonlar psixologik portretini yarata olgan. U psixologik portretga alohida to'xtab o'tirmaydi, balki ichki monolog, nutqiy xarakteristikasi va boshqa badiiy tasvir vositalari yordamida hikoya davomida dinamik usulda tasvirlaydi. Bu yo'l bilan yozuvchi o'quvchini voqealar girdobiga asta-sekin jalb qilib, “eng asosiy voqealar, faktlarga” tayyorlab boradi. Shu tarzda hikoya davomida Yafaning xislatlari, sirlari, xakteri ochilib boradi. Avval uning o'zga yurtda ekanligi, keyin hijron azobi, uning sabablari, g'arb hayotiga munosabati va nihoyat o'zligini saqlab qolishi. Ammo adiba o'z uslubiga muvofiq, hodisalarni ifodalash davomida xronologik ketma-ketlikka amal qilmaydi, voqealar ketma-ketligini har tomonga sohib tashlaydi, konsentrik tip asosiga qurilgan syujetni bir butun qilib, xulosa chiqarishni esa kitobxonga havola qiladi. Bu bilan u kitobxonga asarni o'qish davomida diqqat-e'tiborni kuchaytirish ma'lumotini yuklaydi va asarga qiziqishni kuchaytiradi. “O'zga bir sovuq oqshom” hikoyasida ham psixologik portret asar g'oyasini ochishda yetakchilik qiladi. Yozuvchi hikoyada ko'tarib chiqqan diniy ichki-qarama qarshiliklar va

² Shodiyev N. Ruhiyat rassomi. -T.:Fan, 1977. -b.17.

³ غادة السمّان. ليل الغريباء. المواء. بيروت، منشورات غادة السمّان. ص.26.

⁴ Vvedeniye v literaturavedeniye:Uchebnik p.obshch.red. Krupchanova. L.M. -M.: Oniks, 2005. -S.251

natijada yuzaga kelgan uqubatli voqealar sababini odamlarda haqiqiy Iymonning yetishmasligida deb biladi, uni psixologik portret orqali, asar qahramoni Fotimaning otasi haqida aytgan ichki monologida havola etadi.

لم أكون أحبه، و لم أكون أكلامه. تمت أحسده. كان يببو قويا، ما لنا نوما، مطمئنا و سعيدا. و كنت أتمنى أن أعرف سر مذاكله...
كنت انبش في غرفة مكتبة اخوتي الثلاثة، لعلى أجد ذاك السر في كتبهم..

Ularni (otamni) yaxshi ham ko'rmsdim, yomon ham, shuncha-ki, hasad qilardim. Kuchli, doim vazmin, mamnun va baxtli tuyulardilar va men buning barini sirini bilгим kelardi...

Bu sirlarni akalarning kitoblaridan topish maqsadida, uchala akamning kutubxonasini kovlardim...

Din bo'yicha qarashlari mustahkam, turli siyosiy firqa va diniy guruhlardan yiroq, haqiqiy taqvo i diniy bilim egasi bo'lmish Fotimaning otasi diniy ichki qarama-qarshiliklar sabab yuzaga kelgan otishmada o'z o'g'li tomonidan otilgan daydi o'qdan vafot etadi. Otasining jasadini eshikdan olib kirishganda Fotimaning ichki monologida yana portretga chizgilar beriladi:

و اقترب من خيط الدماء الدف كان يسيل من فمه. أحسست بغيرة لا حلها من تلك الابتسامة العجيبة على شفثيه. كانت تحمل كل ما أبحث عند الداخل الكتب، و لا أعرف له لحديداً: شيء كان يسميه أبى "الايمن".⁵

Men ularning (otamning) og'izlaridan ipday ingichka bo'lib oqayotgan qonga yaqinlashdim. Ularning lablaridagi ajabtovur tabassumdan cheksiz g'ayratni his qildim. Unda men kitoblardan qidirgan barcha narsa mujassam edi, men aniq bilmayman, ammo bu narsani otam bir so'z bilan atardilar: "Iymon"...

Iymon - aynan shu so'z otasiga mislsiz kuch, iroda, hayotdan mamnunlik, cheksiz baxt va doimiy vazminlik baxsh etganini yozuvchi G'ada as-Samman bir so'z bilan tasvirladi. Bu narsa otasini hatto dunyodan ko'z yumganida ham tark etmadi. Garchi Fotimaning akalari ham bir xilda "Iymon", "Iymon", deya bong ursalar ham, fikran, qalban bir-birlariga qarshi bo'lganliklarini muallif hikoya davomida aks ettirdi: ular bir-birlarining qotiliga aylandilar. Sababi ular "Iymon" deya atagan so'z ostida aslida har birlari uchun har xil, umuman boshqa ma'nodagi maqsad turardi. Shu sabab ularning iymoni, ularning ishonchini oqlamadi. Otasining imoni chin va mustahkam bo'lgani uchun, hatto uni vafotidan so'ng ham tark etmay, balki uning yuzida abadiy tabassum bo'lib qolganini yozuvchi yuksak badiiy mahorat bilan ko'rsatib bergan.

G'ada as-Samman o'z qahramonlari obrazini o'quvchi tafakkurida gavdalantirar ekan, ularning yoshi, tashqi ko'rinishiga urg'u bermaydi, balki personajning ichki olami, ruhiyatiga chizgilar beradi. Adiba asarlari va ularda yaratilgan obrazlarning o'ziga xosligi ham shunda namoyon bo'ladi.

O'zbek yozuvchisi Zulfiya Qurolboy qizi ham obrazga portret chizgilari berishda o'z uslubiga ega – adiba qahramonlarining "ismi jismiga monand" bo'lib, muallif tanlagan ism obrazning tashqi ko'rinishi, fe'l-atvori va hatto ayrim xollarda taqdiriga ham taalluqli bo'ladi.

Muallifning "Hilola" nomli hikoyasi ham bir o'zbek qizining qismati va uning ruhiyati tasviri masalasiga bag'ishlangan bo'lib, unda bedavo kasallikka chalinganligi sabab turmushga chiqish, ayollik va onalik baxtiga erishish kabi orzulari armonga aylanayotgan oddiy bir o'zbek qizining iztiroblari va erta vafot etishi tasvirlaydi.

Mazkur hikoya ham adiba Zulfiya Qurolboy qizining uslubiga muvofiq, hikoyachi-personaj nutqidan bayon etiladi. Hikoyaning bosh qahramoni Hilola ismli o'qituvchi qiz bo'lsada, ammo muallif hikoyachi-personaj sifatida uning yaqin dugonasini tanlaydi. Fikrimizcha, asarning eng katta yutug'i ham shunda, ya'ni bosh obraz Hilolaning ichki dunyosi, iztiroblari, o'y-xayollari – psixologik portretiga chizgilar uning dardini hammadan ham yaxshi biladigan, uni his qila oladigan, vaqti kelsa so'zsiz xam tushuna oladigan eng yaqin dugonasi tilidan bayon etiladi, ayol dardi boshqa bir ayol nigohidan tasvirlanadi. Asar davomida muallif

⁵ O'sha asar. B.137.

hikoyachi-personaj shaxsiga ortiqcha to'xtalmaydi, voqealar markazida faqat Hilola obrazi turadi. Hikoya avvalida yozuvchi uch kunlik yangi chiqqan oy tasviri orqali Hilola obrazining ruhiyatiga, uning qismatiga ilk chizgilarni beradi.

Uch kunlik hilolni ko'rganmisiz?

Nozikkina, rangpar, xira yog'du sochib turuvchi uch kunlik hilol... Bir qarasangiz yorqin, bir qarasangiz zarrin nurlari borliqni yoritishga kuchi yetmayotganday behol...

*...har doim oy yangilanganida qoramtir osmonning bir chetida iymajibgina turgan uch kunlik hilolni ko'rishim bilan dugonam Hilolani esga olaman*⁶

Mazkur bandda yozuvchi kompozitsion vosita sifatida "oy" detalidan foydalanar ekan, oy ramzi orqali bosh qahramon Hilolaning ruhiyatiga chizgilar berish bilan birga, uning achchiq qismatiga ishora qiladi. Ramziy ma'noda uch kunlik oyni tanlaydi va hayotga endigina qadam qo'yib kelayotgan 25-26 yoshlar atrofidagi nozik bir qizning qalbidagi orzu-umidlarini "oy yog'dusi"ga, uni o'rab turgan "qoramtir osmon" esa Hilolaning orzularini ro'yobga chiqishiga to'sqinlik qiluvchi bedavo dardi timsoli sifatida ifodalaydi.

Adiba Hilola obrazi bilan o'quvchini tanishtirishda davom etarkan, navbatdagi kompozitsion vosita – portretidan foydalanib, uning tashqi ko'rinishini tasvirlaydi.

Hilola...

*Uch kunlik hilol misol nozik, rangpar, yupqa lablari qonsiz... Quyuyq kiprikli, shahlo ko'zlari goh ma'sum, goh qayg'uli, ba'zi-ba'zida, kayfiyati a'lo vaqtlarida sho'xlik-mug'ombirlik bilan boqadi. Va bu unga juda yarashadi. Kitoblarda tasvirlangan oyimqizlarga o'xshab ketardi*⁷

Bu o'rinda Zulfiya Qurolboy qizi statik portret turidan foydalanib, Hilola obraziga personaj asarga kirib kelgandayoq tavsif beradi. Ammo muallif bu bilan cheklanib qolmay, asar davomida dinamik portretidan foydalanib, voqea va dialoglar tasvirida, harakat davomida personaj ko'rinishiga doir ayrim detallarni kiritib boradi. "Bunday portret detallari (yuz-ko'z ifodalari, tana holati va harakati, qiliqlari) ko'proq remarkalardan joy oladi va personajning ayni paytdagi ruhiy holatini ifodalashga xizmat qiladi".⁸

Hikoya davomida muallif hikoyachi-personaj nutqi orqali Hilola obrazi haqida ma'lumot berar ekan, Hilolani juda kamtar, odobli, ochiqko'ngil va mehnatkash qiz qilib ta'riflaydi. Hilola har tomonlama ideal obraz sifatida gavdalantirilar ekan, uning darslarni mahorat bilan o'tishi, o'z kasbining fidoiysi ekanligiga alohida urg'u beriladi. Bir qarashda Hilolaning hayotda ortiqcha muammosi yo'qday go'yo – sevimli kasbi bor, ikki smenalab ishlaydi va shunga yarasha maosh oladi, katta bir oilaning farzandi, ota-onasi, aka-ukalari va kelinlariyu jiyanalari bilan ahil-inoq yashaydi. Ammo uning ko'ngli yorishmaydi, "yoshi o'tib qolayotgani" sabab, ko'p kuyunadi. Uning barcha o'zbek qizlari kabi orzusi bor – turmushga chiqish va bir oilaning baxtli bekasi bo'lish. Shu o'ylar unga qattiq iztirob berardi:

*"Uning hozirgina kulib turgan chehrasi tundlashib, ko'zlarida alamli iztirob paydo bo'ldi"*⁹

Iztiroblari esa uning ko'zlarida, so'zlaridan sezilib turishini adiba Zulfiya Qurolboy qizi obraz portreti hamda hikoyachi-personajning nutqiy xarakteristikasi orqali ifodalaydi:

"Hilolaning ko'zlaridan shashqator yosh oqar, yuzi dokadek oqarib ketgandi. Yig'layotganini Hilolaning o'zi ham bilmasdi chog'i. U bexushdek, bir nuqtaga qadalgan qorachiqlari qotib qolgan, vujudi ham toshga aylangandek qilt etmasdi..."

Adiba Zulfiya Qurolboy qizi Hilola obrazi orqali oddiy o'zbek qizini gavlantiradi, milliyligimizga xos bo'lgan oila va oilaviy rishtalarning o'zbek yoshlari, umuman Sharq insoni uchun qanchalar muhim ekanligini yana bir bor e'tirof etadi. Hikoya bosh qahramoni Hilolaga oila qurmay bu dunyodan o'tib ketish kabi katta bir armon azob berardi.

⁶ Zulfiya Qurolboy qizi, "O'lim hech narsa emas". Yangi asr avlodi, T.:2011-yil. 206-b.

⁷ Zulfiya Qurolboy qizi, "O'lim hech narsa emas". Yangi asr avlodi, T.:2011-yil. 207-b.

⁸ D.Quronov va b., "Adabiyotshunoslik lug'ati". Akademnashr, T.: 2010-y. 227-b.

⁹ Zulfiya Qurolboy qizi, "O'lim hech narsa emas". Yangi asr avlodi, T.:2011-yil. 208-b.

"...borgan sarin uning yuzidan tarovat qochib, ko'zlarida umid uchquni so'nib borardi. Peshonasi-yu ko'zlarining tagida bilinar-bilinmas ajin paydo bo'lgandi"

Hikoyada psixologik portret bilan birgalikda, psixologik tasvir vositasi – nutqiy xarakteristikadan ham muallif mahorat bilan foydalangan. Hilola obraziga dugonasining tilidan tavsif berilar ekan, muallif dugonasi aslida qanday oqibatli va chin do'st ekanligini ko'rsatib o'tadi. Biz Hilolaning dugonasi haqidagi fikr va tasavvurni, uning qanchalar bag'rikeng, dugonasining baxtli bo'lishini istaydigan oqila qiz ekanligini aynan uning o'zining nutqidan bilib olamiz.

*Ko'zlarim jiqqa yoshga to'lgach, ich-ichimdan nimadir ko'tarilib kelib, bo'g'zimga tiqilgan edi. Xudo haqqi, mo'jiza yuz berib, menga tushimdami, o'ngimdami Xizr yo'liqsa... Men undan Hilolaga baxt so'vardim, deya orzu qilganicha necha-necha kunlarni, oylarni, hatto yillarni o'tkazib yubordim*¹⁰

Oradan yillar o'tadi. Bu orada dugonasi turmushga chiqib, ikki bora farzandli bo'ladi hamki, Hilolaning baxti ochilmaydi. Ammo dugonasi Hilolaga baxt so'rashdan, u haqida o'ylashdan tinmasdi va nima sababdan ota-onasini uni turmushga berishni istamasligi tushunmasdi.

Afsuski, tun-kun o'ylaganim, niyat qilganim bilan menga Xizr yo'liqmadi, Hilolaning esa baxti ochilmadi...

*Biroq u juda o'zgarib ketgandi. Endi u ilgaridek pana-panada yig'lab siqtamas, nola qilmas, ota-onasini yozg'irmas, aksincha, o'zini quvnoq ko'rsatishga harakat qilar, yuzidan tabassum arimas, tinmay, labi labiga tegmay gapirar, hamsuhbatiga og'iz ochirgani qo'ymasdi*¹¹

Oradan yillar o'tganidan so'ng, va nihoyat ilk ko'klam kunlaridan birida Hilola dugonasining oldiga xushxabar bilan keladi, qo'shni qishloqdan kelgan sovchilarga ota-onasi rozilik beradi.

*Shu chog'da uni bir ko'rsangiz edi! Shahlo ko'zlari chaqnar, rangpar yonoqlari lov-lov yonar, hamisha iztirob bilan qimtilgan lablarida yuraklarni ko'tarib yuborguvchi tabassum jilvalanardi*¹²

Ammo Hilolaning uzoq kutilgan baxti ko'pga bormaydi. To'y bo'lib o'tgandan keyin, bir haftadan so'ng "*Hilola vafot etibdi*" degan shumxabarni eshitgan dugonasi yaqindagina yor-yor aytib, kelin uzatib borgan hovliga aza kiyimlarini kiyib boradi va shu yerda Hilolaning ota-onasi nima sababdan shu vaqtga qadar turmushga berishni istamaganliklari haqidagi sirdan xabar topadi.

Kasal edi, sho'rlik. Suyuq qon edi... o'n to'rt yoshida do'xtirlar ko'rikdan o'tkazib, "gemofiliya" deyishgan. Iloji boricha turmushga bermaslikka harakat qilinglar, deyishgan... Lekin bu haqda Hilolaga aytishmagan. Balmasdi, sho'rlik... Oxiri aytdik, shunaqa-shunaqa, kasalsan, dedik. Mayli, peshonamda borini ko'raman, dedi. Noiloj rozi bo'ldik

Hikoya so'ngida barcha sirlardan voqif bo'lgan dugonasi qattiq iztirob chekadi, muallif so'ngso'z o'rnida yana uch kunlik oy haqida yozadi. Hilolaning nozik va zaifligini, go'zalligi va tarovatini uch kunlik oyga qiyoslaydi.

Adiba Zulfiya Qurolboy qizi mazkur hikoyasida bir o'zbek qizining baxt sari talpinishlarini, oila qurish haqidagi orzu-umidlarini tasvirlash orqali, sharq xalqlariga, xususan o'zbek millatiga xos bo'lgan oila va oilaviy munosabatlarning inson hayotidagi o'rni haqida yozadi. Sharq xalqlarida, o'zbek xalqi orasida har bir shaxs go'daklik davridanoq oila qurish – uylanish va turmushga chiqish masalasini hayotdagi eng birlamchi masala deb qabul qiladi. Qizaloqlar kichik davridanoq, hatto dugonalari bilan qo'g'irchoq o'ynaganida o'zini ona rolida tasavvur qiladi, o'g'il bolalar esa katta bo'lganida dadasidek oilaparvar bo'laman deb ulg'ayadi. Shu jihati bilan ko'plab sharq xalqlarida, xususan o'zbek xalqida ham oila institutiga munosabat mutlaq farq qiladi.

¹⁰ Zulfiya Qurolboy qizi, "O'lim hech narsa emas". Yangi asr avlodi, T.:2011-yil. 212-b.

¹¹ Zulfiya Qurolboy qizi, "O'lim hech narsa emas". Yangi asr avlodi, T.:2011-yil. 213-b.

¹² Zulfiya Qurolboy qizi, "O'lim hech narsa emas". Yangi asr avlodi, T.:2011-yil. 215-b.

Zulfiya Qurolboy qizining insoniy munosabatlarga bag'ishlangan yana bir hikoyasi – "Holiq amaki" asarida ham adabiy portret orqali personaj ruhiyatini ochib berilishini ko'rishimiz mumkin. Asar avvalida Xoliq amaki obraziga statik portret chizgilari beriladi:

Xoliq amaki...

O'shi ellik besh-ellik oltilarga borgan; o'rta bo'y, bug'doyrang, qisq ko'zlarining atrofini, torgina peshonasini son-sanoqsiz ajinlar qoplagan, yoshligidan nos chekib o'rgangani boismi yo boshqa sababi bormi, tishlari avvaliga sarg'aya boshlagan, so'ng ko'kimtir tus olgan, yaqindan buyon qorayib ketgan — kulganida juda xunuk ko'rinadi — egnida yoqasiyu yenglari idrab-suzilib qolgan chorxonona ko'ylak, rangi uniqib ketgan nosvoyrang soldatcha shim, oyog'ida poshnasi yeyilgan, tumshug'i yirtilganda tikilaverib "qo'tir" bo'lib qolgan etik... Sochlari qorday oqarib ketgan boshida hamisha yap-yangi do'ppi bo'lardi.¹³

Mazkur hikoya ham yozuvchi uslubiga ko'ra, hikoyachi-personaj tilidan bayon etilganligi sababli nutqiy xarakteristika, pauza vositasi kabi psixologik tasvir vositalari asar qahramonlari ruhiy holatini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sho'rlik Salima rangi bo'zdek oqarib, devorga suyanganicha qotib o'tirar, ko'zi peshonasiga bitib qolgandek kiprik qoqmas, hech kimni, hech narsani ko'rmayotgandek, his etmayotgandek... Sakkizta qiz ichida shugina sag'ir qolganday...¹⁴

Mazkur parchada muallif Xoliq amaki vafot etgan chog'da, uning eng kichik qizi Salimaning holatini o'xshatish, istiora san'atlari orqali yanada ta'sirchan qilib chizadi. Hikoyada qahramon nutqining ko'pgina qismini nutqiy xarakteristika egallaydi. Muallif personaj nutqi orqali uning ichki dunyosini ochadi, atrof-muhit va boshqa obrazlarga ta'rif beradi, boshqa personajlarga portret chizadi.

Ko'p nuqta shaklida berilgan pauza vositasi esa o'z o'rnida hikoyachining ruhiy holatiga ishora qiladi. "Nutqiy xarakteristikadan nuqtalar pauza vositasini bajaradi. U qahramonning kayfiyati, ruhiy holati, kechinmalari darajasini ko'rsatadi".¹⁵ Ko'p nuqtalar qahramonning tushkun holati, uning nutqidagi allaqanday xo'rsinishni yetkazib beradi.

"Adib uchun nutqiy xarakteristika obraz yaratish va ular ichki dunyosini ochishning asosiy vositalaridir. Qahramonning ahvol ruhiyati, kayfiyati, kechinma va his-tuyg'ulari, bir so'z bilan aytganda butun ichki hayot, shu hayotning oqimlari bevosita ularning gaplarida namoyon bo'ladi. Chunki qahramon nutqi bevosita ruhiy holat mahsuli sifatida paydo bo'ladi".¹⁶

Bu hikoyada nutqiy xarakteristikaning personajlar o'zini-o'zi ta'rif-tavsif etish usuli qo'llanilmagan, chunki hikoya faqat bir qahramon tilidan bayon etiladi. U esa o'ziga ta'rif bermagan. Faqatgina bir personajning boshqa personajga ta'rifi mavjud:

Muallif Zulfiya Qurolboy qizi esa o'z asarlari orqali mazkur qadriyatlarimizning inson taqdiri, shaxs qismatidagi o'rmi haqida yozadi, adiba asarlari bugungi kun jamiyati va uning insonlari, ularning o'y-kechinmalari, orzu-istaklarini tarannum etib kelmoqda. Zero, o'zbek adabiyotshunoslik ilmining yirik namoyandasi professor U.Normatov e'tirofi bilan aytganda "adibaning inson sha'nini himoya qilish va ulug'lashdek mo'tabar mavzuni yanada teranroq va ko'lamdorroq yoritib berishi, muammolarning betakror yechimini topishi" uning mahoratidan dalolatdir.

G'ada as-Samman va Zulfiya Qurolboy qizi uslubiga xos bo'lgan voqea-hodisalarni hikoyachi-personaj tilidan bayon qilish o'z navbatidan badiiy asarda ichki monolog va nutqiy xarakteristika ajralmas birlik sifatida qo'llanilgan. Ikkala adiba hikoyalarida qahramon psixologiyasi, ichki kechinmalari va ruhiy iztiroblari ichki monolog, xotira monologi, pauza vositasi kabi psixologik tahlil elementlaridan unumli foydalanilib, badiiy tasvir vositalaridan istiora, tashbeh, muqobala, majoz kabi san'atlar yordamida yanada boyitilgan va ma'no jihatdan chuqurlashtirilgan, o'quvchi e'tiboriga vaziyatning aniqligi va voqealar ta'siri kuchaytirilgan.

¹³ Zulfiya Qurolboy qizi "Qadimiy qo'shiq". O'zbekiston, T.:2012-yil. B-187.

¹⁴ O'sha asar, B 197.

¹⁵ Shodiyev N.T. Abdulla Qahhoring psixologik tahlil mahorati. Fil.f.d. -T., 1974. B- 57.

¹⁶ Shodiyev N. Ruhiyat rassomi. -T.:Fan, 1977. -B.17.

Ikkala muallif ham o'zining bosh qahramonlari qilib ayol obrazlarni tanlaydi va ruhiy holatini ochib berishda ularning nutqidan foydalandi. Voqe'likni bayon qilib berishni personajning o'ziga yuklaydi. Bu bilan qahramon va o'quvchini yuzma-yuz qo'yib, ularni bemalol dardlashishiga yo'l ochib beradi. Bu hol mazkur yozuvchilarning o'ziga xos bir uslubi bo'lib, u qahramonlar va hikoya psixologiyasini ochib berishga xizmat qiladi. Natijada hikoya qahramonning uzun bir monologi kabi bo'lib, hikoyadagi badiiy psixologizmni kuchaytiradi.